

## PEDAGOGIK JAMOADA SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Navoiy shahri 20-maktab Psixolog  
Mirzayeva Shaxnoza Rustamovna*

**ANNOTATSIYA** Ushbu maqolada ta'lif muassasalari jamoasida sog'gom muhitni yaratishning pedagogik-psixologik asoslarini tahliliga e'tibor qaratilgan. Jamoadagi psixologik zo'riqishlarni bartaraf etish, ta'lif muassasasi rahbari va bo'y sunuvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, xodimlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkillashtirish, mehnat faoliyatini tashkil etishga takliflarni erkin kiritish imkoniyatini yaratish, jamoada do'stona, shuningdek faoliyatda hamkorlik munosabatlarini yaratish.

**Kalit so'zlar:** ta'lif, ta'lif muassasasi, o'qituvchi, pedagogik, psixologik, psixokorreksiya, korreksion pedagogika

**ABSTRACT** The article focuses on the analysis of the pedagogical and psychological basis for creating a healthy environment in the community of educational institutions. Overcoming psychological tensions in the team, improving the professional skills of the head of the educational institution and subordinates, the proper organization of leisure time of employees, the opportunity to freely submit proposals for the organization of labor activities, team-friendly, as well as building partnerships.

**Keywords:** education, educational institution, teacher, pedagogical, psychological, psychocorrection, correctional pedagogy

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется анализу педагогико-психологических основ создания здоровой среды в коллективе образовательных учреждений. Устранение психологической напряженности в коллективе, повышение профессионального мастерства руководителя образовательного учреждения и подчиненных, правильная организация досуга сотрудников, создание возможности свободного внесения предложений по организации трудовой деятельности, создание в коллективе дружеских, а также кооперативных отношений в деятельности.

**Ключевые слова:** образование, учебное заведение, учитель, педагогический, психологический, психокоррекция, коррекционная педагогика

**KIRISH** Pedagogik jamoalarda psixologik muhitning ijobiliyigi ta'lif-tarbiya sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim komponentlardan biri ekanligi nazariy va amaliy jihatdan inkor etib bo`lmaydigan faktadir. Jamoada ijobiliy psixologik muhit mavjud bo`lsa, nafaqat pedagogik majburiyatlar, balki har qanday mehnat jamoasi

oldiga qo`yilgan vazifalar sifatli bajarilishiga zamin hozirlanadi. Masalaning yana bir muhim tomoni ham borki, bu ham bo`lsa, mehnat jamoasi a`zolarining o`z kasbidan qoniqqanligidir. Chunki, jamoada ijobiy muhit bo`lishi uchun, jamoa azolari o`zidan, ayniqsa, o`z kasbidan qoniqqan bo`lishlari zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqib o`qituvchilarda mehnatdan qoniqqanlikni o`rganish hamda o`z mehnatidan qoniqmaslik holatlarini korreksiya qilish orqali pedagogik jamoalarda ijobiy muhitni shakllantirish, pirovardida ta`lim-tarbiya sifatini yaxshilashga ta`sir ko`rsatish maqsad qilingan. E`tiborga olish kerakki, pedagogik faoliyat odam tipiga mansub kasb hisoblanib, agar mazkur soha egalarida o`z kasbiga nisbatan loqaydlik, e`tiborsizlik yoki sustkashlik vujudga kelsa, bevosita pedagogik faoliyat obyekti bo`lgan o`quvchilar mazkur jarayonda zarar ko`radilar. Bu zarar ta`lim-tarbiya sifatini pasayishida o`z aksini topadi. Pedagogik jamoalarda psixologik muhit masalasi bir tomonidan muayyan mehnat jamoasidagi psixologik muhit sifatida talqin qilinishi mumkin, ikkinchi tomonidan pedagogik jamoaning o`ziga xosliklaridan kelib chiqib, murakkab ijtimoiy psixologik va pedagogik jarayonlar zamirida yuzaga keladigan, pedagog shaxsidagi individual xususiyatlar turli psixologik fenomenlarga boy serqirra ilmiy-amaliy tadqiqodlar uchun ob`ektdir. Jamoani ijtimoiy-psixologik muhiti - guruhning eng ajralmas psixologik xarakteristikasidir, bu guruhning bирgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati bilan bevosita bog`liq bo`lgan alohida ob`ektlarni (hodisalarni, jarayonlarni) aks ettirishning o`ziga xos xususiyatlari bilan bog`liq ijtimoiy jarayondir. Guruh faoliyatining samaradorligi jamoaning ijtimoiy- psixologik muhiti holatiga bog`liq. Jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit Sog`lom ijtimoiy- psixologik iqlimning eng muhim belgilari:

- guruh a`zolarining bir-biriga bo`lgan ishonchi va yuqori talabchanligi; - o`zaro do`stona va konstruktiv tanqid qilish;
- butun jamoaga tegishli masalalarni muhokama qilishda o`z fikrini erkin ifoda etish;
- menejerlarning bo`ysunuvchilarga bosimining yo`qligi va ularning guruh uchun muhim bo`lgan qarorlarni qabul qilish huquqini tan olishlari;
- jamoa a`zolarining vazifalari va ularni amalga oshirishdagi ishlar holati to`g`risida yetarli darajada xabardorligi;
- jamoa a`zolarida jamoaga tegishli bo`lganidan mammunlik hissiyoti;
- jamoaning har qanday a`zosida ko`ngilsizlik holatini keltirib chiqaradigan holatlarda (aldanish, umidsizlik, rejalarini buzish) yuqori darajada hissiy ishtirok etish va o`zaro yordam;
- guruhning har bir a`zosi tomonidan ishlarning holati uchun javobgarlikni o`z zimmasiga olish va boshqalar.

Ushbu dasturni amalga oshirishda quyidagi qushimcha tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- 1) rahbarlarning kasbiy mahoratini oshirish, mehnat jamoasini boshqarish va psixologik muhitni holatini normallashtirish bo'yicha adabiyotlarni o'rganish, tashkiliy va tarbiyaviy ishlar usullari va uslublari;
- 2) personal malakasini oshirish, kasbiy malakasini oshirish, xodimlarning karera rejalashtirish imkoniyatlarini ta'minlovchi kadrlarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- 3) jamoa bilan qo'shma tajribalarda yutuq va muvaffaqiyatsizliklarni aniqlash;
- 4) agar kerak bo'lsa, rahbarlik uslubini o'zgartirish orqali tashkilotdagi sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yanada takomillashtirish;
- 5) psixologik muvofiqligi asosida jamoani shakllantirish;
- 6) boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida xodimlarning salohiyatidan foydalanish;
- 7) xodimlar o'rtasidagi rasmiy va norasmiy aloqalar chastotasining ko'payishiga ko'maklashish, ularning afzalliklarini ko'rsatib, ularning kasbiy o'sishiga ko'maklashish;
- 8) jamoaning bo'sh vaqtlarini birgalikda tashkil etish va o'tkazish: - sport musobaqalarini o'tkazish; - teatrarga, kinolarga, konsertlarga qo'shma tashriflarni tashkil etish; - maxsus ayramlar, sanalar va marosimlar uchun ziyofatlar tashkil etish;
- 9) jamoa a'zolarining havaskor chiqishlarida ishtirok etish;
- 10) jamoa uchun psixologik yengillashtirish xonasini yaratish;
- 11) xodimlar o'z takliflarini kiritishlari mumkin bo'lgan guruh ishini yaxshilash uchun "takliflar va istaklar qutisini" yaratish;
- 12) tashkilot psixolog tomonidan davriy va doimiy psixologik treninglar. Jamoadagi psixologik zo'riqishlarni bartaraf etish, ta'lim muassasasi rahbari va bo'ysunuvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, xodimlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkillashtirish, mehnat faoliyatini tashkil etishga takliflarni erkin kiritish imkoniyatini yaratish, jamoada do'stona, shuningdek faoliyatda hamkorlik munosabatlarni yaratish. Dasturni amalga oshirish natijasida qo'yidagi ijtimoiy-psixologik muhit ko'rsatkichlarini vujudga kelishi mumkin: - jamoada ishbilarmonlik, ish kuni davomida ijodiy kayfiyat, xodimlar o'rtasidagi munosabatlarda quvnoq ohanglari, kayfiyatdagi optimizm hukmronlik qiladi; - munosabatlardan hamkorlik, o'zaro yordam, xayrixohlik tamoyillari asosida quriladi; guruh a'zolari hamkorlikda ishlarda qatnashishni, bo'sh vaqtlarini birga o'tkazishni yaxshi ko'radilar; munosabatlarda ma'qullah va o'zaro qo'llabquvvatlash ustunlik qiladi, yaxshi konstruktiv tanqid bildiriladi; - tashkilot xodimlari faol, kuch-qudratga to'la, o'zaro yordamda tezda javob berishadi, xodimlarning o'zaro yordami kerak bo'lsa, hamkasbini «to'laqonli qamrab olishga» tayyorligi; - ayrim xodimlarning yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklari tashkilotning barcha a'zolarining hamdardligi va samimiy ishtirokini keltirib chiqaradi, agar muvaffaqiyatga erishilsa, xodimlar o'z hamkasblari va o'z tashkilotlari bilan

faxrlanishni his qilishadi; tashkilot tarkibidagi tarkibiy bo‘linmalar yoki jamoadagi mikro guruuhlar o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro kelishuv, tushunish va hamkorlik vujudga keladi; - kadrlar qo‘nimsizligining pastligi. Xodimlar boshqa tashkilotlarga teng, ba’zan esa yuqori lavozimlarga o‘tkazilishidan ham bosh tortishadi; - tashkilot uchun qiyin paytlarda jamoaning jipsligi va hissiy birligi mavjud ("bitta - hamma uchun, va hamma – bir kishik uchun"). Muhitni sog‘lomlashtirishda psixokorreksion yordamning samaraliliga baho berish borgan sari aktuallashmoqda. Bu mutaxassisning ta’sir eta olishi va psixokorreksion ishning sifatliligidandir. - Ishning samaradorligini baholashda aniq metodni belgilab olish zarur. Korreksion ishda ma’lum bir metodni oldindan tanlash qiyin, chunki ish faoliyatida psixologlar turli metodlardan foydalanadilar. - Hatto bir metod har xil mutaxassisda har xil natija beradi. - Ishning bahosini bu metoddan xabari bo‘lmagan ekspert berishi zarur. - Psixologning tarbiyaviy-ta’limiy sifatini hisobga olish kerak. - Psixologning kasbiga bo‘lgan qiziqishini hisobga olish zarur. - Guruhiy korreksion ishda psixologning professional bo‘lishi katta ahamiyatga ega. - Psixokorreksion ishlarda mijoz psixologik ta’siridan so‘ng quyidagilarga qarab baholanadi: - Ichki kechinmalarning sub’ektiv mohiyatining o‘zgarganligi. - Ta’sir etgandan so‘ng respondentning ijobjiy tomonga o‘zgarishi. - Psixologik ta’sir samarasini belgilashda psixofiziologik metodlardan foydalanish mumkin. Ular insonning vegetativ-somatik fiziologik va psixik funksiyalarini baholaydi. Psixokorreksion ta’sirning samaraliligi kriterysi har bir shaxsdagi salbiy o‘zgarishlarni aynan uni o‘ziga xos ekanligini hamda tanlangan psixokorreksion metodlar ta’siri shu o‘zgarishlarga qaratilganligini hisobga olish bilan bog‘liqdir. Maqsad: profayling o‘tkazuvchi xodimlarning kuzatuvchanlik sifati shakllanishining psixologik jihatlarini o‘rganish orqali kuzatuvchanlik sifatini rivojlantirish. Bu maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi. — Kuzatuvchanlik sifatini muhim xarakterga ega ekanligini anglab yetishga ko‘maklashish. — Tabiiy kuzatish usullarini o‘rgatish va ob’ektiv xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish. — Nizoli vaziyatlarda o‘z xulq-atvorini korreksiya qilish malakasini shakllantirish. — O‘z emotsiyasini to‘g‘ri namoyon qila bilish va aggressiv reaksiyalarini jilovlay olishga qaratilgan bilimlarni xosil qilish. — Boshqa odamlarning kechinmalari, xolati va qiziqishlarini tushunib yetishiga yordam berish. Shaxslararo nizolarni konstruktiv xal etish bilimini shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga joriy qilish orqali biz quyidagi natijalarga erishishimiz mumkin:

1. O‘qituvchi xodimda namoyon bo‘layotgan kuzatuvchanlik sifati darajasini oshishi;
2. Xodimning o‘z-o‘zini anglashi, shu o‘rinda o‘z-o‘ziga bahosini adekvat xolatga kelishi ;
3. Nizoli va muammoli vaziyatlarda xulq-atvorni meyorida ushlab turish;

4. O‘zi va boshqalarning emotsional xolatini solishtirishga, o‘zidagi emotsional zo‘riqishlarni pasaytirish.

5. Xulq-atvor normalariga rioya qilish.

Psixokorreksiyani o‘tkazish shartlari:

→ Xodimning psixologik yordam olishi uchun ixtiyoriy roziligi ;

→ Xodimning mutaxassisga ishonchi;

→ Korreksion dasturni amalga oshirish jarayonida xodim faolligi.

→ Psixokorreksion guruh faoliyatining asosiy tamoyillari:

→ Masuliyatlilik tamoyili.

→ Yaqinlik tamoyili.

→ Qo‘llab-quvvatlash tamoyili.

→ Shu yerda va xozir tamoyili.

→ Maxfiylik tamoyili.

→ Seminarning boshidan oxirigacha qatnashish tamoyili.

Psixokorreksiya jarayonini aks ettiruvchi 4ta asosiy strategiya mavjud:

→ Vaziyatni o‘zgartirish.

→ Vaziyatni o‘zgartirish uchun o‘zini o‘zgartirish.

→ Vaziyatdan chiqib ketish.

→ Mazkur vaziyatda hayotining yangi jihatlariga etibor berish.

Xulosa o‘rnida o‘qituvchi alohida e’tibor talab qiladigan obyektdir. Amaliyot shuni ko’rsatadiki, odatda o‘qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo’ladilar. Hamma gap psixolog o‘zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o‘qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozisiyasi juda muhim rol o‘ynaydi.

Psixolog pozisiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- pedagog bilan bo’lgan munosabatga ustanovka;

- pedagoglarni qanday bo’lsa shundayligicha qabul qilishga ustanovka

- subyekt

– subyekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka.

Ta’lim jarayonida shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo’lgan konstruktiv hamkorlikni ta’minlay oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Djurayev R. Ta’lim menejmenti. T.: Voris-nashriyot. 2006 yil.

2. Safarova R. O‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrlari. T.: Fan-texnologiya. 2013.

3. Turg‘unov S. O‘qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. T.: Sano-standart. 2012.

4. Safarova R. O‘quvchilarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondoshuvlar. T.: Fan-texnologiya. 2012.
5. Turopovna, Baratova Nasiba. "PEDAGOGIK JAMOA VA UNI SHAKLLANTIRISH YO ‘LLARI, USLUBLARI." INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL 3.5 (2022): 283-290.
6. Abdusamatova, Osiyo Olimjanovna, and Mekhriddin Mukhiddin Ugli Xusniddinov.
7. G‘oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi.
8. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
9. Дусмухамедова Ш., Салиева Д., Максимова Л. А. Соотношение уровня развития академической самостоятельности младших школьников с показателями учебной мотивации и стилем педагогической деятельности (на примере учащихся начальных школ Узбекистана) //Педагогическое образование в России. – 2020. – №. 2. – С. 77-83.
10. Kasimova, Z. X. (2021). Ta’lim muassasalari jamoasida sog ‘lom muhitni shakllantirishning pedagogik-psixologik ASOSLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 3), 362-368.
11. . Бабурова И.В. Профессиональная подготовка учителя к формированию благоприятного социально-психологического климата в группе школьников. Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. М., 1997. - 16 с.
12. Abdullaev, A. S. (2021). Xorij psixologlari tadqiqodlarida pedagogik jamoada psixologik muhit masalasining qo‘yilishi. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(Special issue 1), 33-39.